Maktabgacha yoshdagi bolalarda ilk matematik tasavvurlarni shakllantirish jamiyatning asosiy talabi sifatida	927
Toshimova Gulzoda Jamoliddinovna	
Sun'iy intellekt vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining iqtisodiy va moliyaviy savodxonligini shakllantirish mexanizmlari	930
Jumayeva Feruza Sayidovna	
O'qish savodxonligi darslarida matn ustida ishlash (2-sinf misolida).....	936
Abdiyeva Shakila Ishkuvatovna	
Turistik faoliyatda ijtimoiy muloqot kompetensiyasini takomillashtirishning pedagogik asoslari.....	941
Abdullayeva Sevara Yuldashevna	
Oilaning katta avlodi va maktabgacha yoshdagi bolalar o'rtaqidagi psixologik munosabatlarning nazariy asoslari	944
Ashirova Sojida Baxromovna	
Yosh pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda tajriba almashishning ilmiy-metodik asoslari va usullari	948
Dildora Rustam qizi Fozilova	
Maktabga tayyorlov bosqichida o'quvchilar grafomotorikasini individual yondashuv asosida rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari	951
Jumayev Sanjar Soatmumin o'g'li	
Uzluksiz ta'limda inklyuziv yondashuvning samaradorligini ta'minlovchi pedagogik va ijtimoiy omillar.....	955
Kobilova Shaxnoza Xudayshukurovna	
Tolerantlik tushunchasining mohiyati va uning ta'lim tizimidagi ahamiyati.....	958
Kurbanova Shoirra Abduraximovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni mashg'ulotlar jarayonida TRIZ texnologiyasi bilan tanishtirishning ahamiyati.....	961
Meliboyev Anvar Rashidovich	
The Conceptual Framework and Pedagogical Affordances of Vtss: A New Paradigm for Specialised Instruction.....	964
Nilufar Sabirova	
O'zbek oilalarida axloqiy tarbiya munosabatlarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	967
Qurbonova Go'zal Saydaxmatovna	
Fizika o'qitishda 4K kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy asoslari	973
Saydayev Obid Bahodir o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida innovatsion faoliyat ko'nikmalarini takomillashtirishning modulli texnologiyalari	979
Saliyeva Perdexan Alimbetovna	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak ijtimoiy soha xodimlarining kognitiv kompetentligini rivojlantirish	984
Qaxxorov Shahriyor Yodgorovich	
Maktabgacha ta'limda ma'naviy-axloqiy tarbiyani amalga oshirish usullari.....	987
Sattorova Shaxlo Axadovna, Omonova Shoxista Anvar qizi, Raximova Durdona Murot qizi	
Ta'lim tizimida sun'iy intellekt elementlaridan foydalanishning afzalliklari	990
Sulaymanova Dildora Baxtiyorovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekologik sanalarga bag'ishlab ma'rifiy tadbirlar o'tkazishning afzalliklari.....	993
Tohirova Baxtigul Hasanboy qizi	
Pedagogik ta'limda talabalarning gnoseologik motivatsiyasini rivojlantirish zaruriyati	996
Xudoyqulova Dilrabo Shodmonovna	
Сопоставление русских и узбекских пословиц: сходства, различия и культурный контекст	1000
Касымова Феруза Суннатовна	
Теоретические аспекты развития мотивационной сферы в психологии изучения личности	1003
Маликова Эвелина Тимуровна	



Психологическая устойчивость личности в исследованиях узбекских учёных: теоретический анализ и применение концепции	1007
Саитходжаев Зуфар Хусан угли	
Biologiya ta'limida kognitiv yondashuv asosida o'quvchilarning universal o'quv faoliyatlarini shakllantirish	1011
Daminova Fayoza Abdixakimovna	
Milliy musiqa merosini zamonaviy ta'limda saqlash muammolari va yechimlari.....	1014
Haydarov Qutlug' Hamdamovich	
Sun'iy intellekt: maktabgacha ta'lim tashkilotining taraqqiyotini ta'minlovchi zamonaviy texnologiya sifatida.....	1017
Axmadaliyeva Mohlaroy Toxtapo'latovna	
Shukur Xolmirzayevning ijtimoiy-etnografik folklorizm yaratish mahorati.....	1021
Mamayusupova S. M.	
Androgogik va interfaol metodlarni jismoniy tarbiya mashg'ulotlarda foydalanish samaradorligi.....	1024
Normamatov Muxiddin Abdumuminovich	
Tinglab tushunishning psixolingvistik xususiyatlari.....	1028
O. V. Kon	
Gi de Mopassanning hikoyachilik mahorati va badiiy uslubi.....	1032
Yuldashev Bahodir Bekmuratovich	
Художественный мир и стилистическая система прозы Патрика Модiano.....	1035
Давронова Зульфия Бобоевна	
Umumta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda pedagogik qarashlar	1041
Xamidov Amin Abdulloevich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qish darslarida kreativ fikrlashga o'rgatish.....	1044
Abduvahob Eshmurodov	
Talabalarda tibbiy bilimlarini rivojlantirishda "Svetofor" metodining ahamiyati va xususiyatlari.....	1047
Akbarova Dono Rahmatdjonovna	
Yosh davrlariga qarab harakat koordinatsiyasining rivojlanish bosqichlari va badiiy gimnastikada ritmning ahamiyati.....	1051
Beknazarova Lobar Shokir qizi	
Mashq va topshiriqlar tizimi orqali talabalarning komparativ-kreativ fikrlashini shakllantirish.....	1055
Mohinbonu Usmonova	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida milliy qadriyatlar asosidagi kompetensiya metodlarini takomillashtirish	1058
Hamdamova Manzura Zuvaydillayevna	
Akademik ko'nikma va uning tipologik tasnifi	1062
N. J. Isakulova	
Формирование коммуникативной компетентности детей старшего дошкольного возраста в процессе взаимодействия со сверстниками.....	1068
Намазбаева Лола Закировна, Умерова Зарема Ремзиевна	
Formativ baholashning nazariy asoslari va fizika fanida qo'llash imkoniyatlari.....	1073
Sobirov Avazbek Anvarovich	
Jismoniy tarbiya darslarida milliy o'yinlardan foydalanish	1078
Ibragimov Shuhratbek	
Interaktiv ta'lim muhitida o'quvchilarning kasbiy-ma'naviy tasavvurlarini boyitish yo'llari.....	1082
Mutallibjonov Ma'rufjon	
O'tkir Rahmat ijodida qo'llanilgan kognitiv metaforalar.....	1088
Maxammatova Feruza Olimovna	
Tarbiya darslarida muammoli ta'lim texnologiyasi orqali o'quvchilarning mustaqilligini rivojlantirish.....	1092
Qurboniyozova Mardona Fayzulla qizi	



Bo'lajak filolog shaxsining kasbiy-pedagogik kompetensiyalari va ularning tarkibiy tuzilmalari	1096
Artikov Akram Elmurodovich	
O'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini ta'minlashda malaka oshirish kurslari va metodik qo'llanmalarining roli	1100
Ochilova Gavhar Hamid qizi	
PISA xalqaro baholash dasturining o'ziga xos xususiyatlari	1107
Babayeva M. A.	
Shaxsga yo'naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvlar asosida bo'lajak o'qituvchilarning kongruentlik qobiliyatini rivojlantirishning metodik ta'minoti	1112
Qobilova Nilufar Xudoyshekurovna	
Kreativlik tushunchasining psixologik-pedagogik talqini va uni rivojlantirishning nazariy modeli	1119
Otamurodova Shamsu Qamar Otamurodovna	
O'qituvchi va ota-onalar o'rtasidagi muloqot madaniyatining o'quvchilarning emotsional nutq rivojiga psixologik ta'siri	1124
Shadiyev Feruz Djaxonovich	
Maktab rahbarlarining liderlik salohiyatini rivojlantirishda ijtimoiy-psixologik mexanizmlarning roli	1129
Turaxonov Abdulkarim Eshkuziyevich	
Cultural Memory and Historical Transformations in Uzbek and English Toponyms	1133
Toshmamatova Umida O'ktam qizi	
Olimpiya shon-shuhrat muzeyi ayol xodimlari o'rtasida sog'lom turmush tarzi va sog'lomlashtiruvchi jismoniy mashg'ulotlarning ahamiyati	1137
Ziyoda Ikromovna Gulyamova	

O'QITUVCHILARNING KASBIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDA MALAKA OSHIRISH KURSLARI VA METODIK QO'LLANMALARNING ROLI

Ochilova Gavhar Hamid qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

(Boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini ta'minlashda malaka oshirish kurslari hamda metodik qo'llanmalarning o'rni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi pedagoglarning uzluksiz professional rivojlanishi jarayonida malaka oshirish tizimi va metodik ta'minotning integratsiyalashgan modelini asoslash hamda uning samaradorligini aniqlashdan iborat. Tadqiqot jarayonida tahliliy monitoring, qiyosiy-solishtirma va tizimli umumlashtirish metodlaridan foydalanilgan. Tadqiqot natijalari malaka oshirish kurslari va metodik qo'llanmalarning uyg'unligi pedagogik kompetentlikni oshirishning muhim omili ekanligini ko'rsatdi hamda ularning ta'lim sifatini yaxshilashdagi o'zaro aloqadorlik mexanizmlari yoritildi. Maqola yakunida pedagoglarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirish, raqamli metodik resurslardan samarali foydalanish va o'qituvchilarning individual kasbiy rivojlanish yo'nalishini shakllantirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy rivojlanish, pedagogik kompetentlik, malaka oshirish tizimi, metodik ta'minot, uzluksiz ta'lim, innovatsion texnologiyalar, raqamli ta'lim muhiti, ta'lim sifati.

Abstract: This article analyzes the role of professional development courses and methodological manuals in ensuring the professional development of teachers in the modern education system from both scientific-theoretical and practical perspectives. The purpose of the research is to substantiate an integrated model of the professional development system and methodological support within the process of teachers' continuous professional development and to determine its effectiveness. The study employed analytical monitoring, comparative analysis, and systemic generalization methods. The results of the research demonstrate that the integration of professional development courses and methodological manuals is an important factor in improving pedagogical competence, and the mechanisms of their interrelation in enhancing the quality of education are revealed. The article concludes with scientific and practical recommendations for the continuous improvement of teachers' professional skills, effective use of digital methodological resources, and the formation of individual professional development trajectories for teachers.

Key words: professional development, pedagogical competence, professional development system, methodological support, continuous education, innovative technologies, digital learning environment, quality of education.

Аннотация: В данной статье научно-теоретически и практически анализируется роль курсов повышения квалификации и методических пособий в обеспечении профессионального развития учителей в современной системе образования. Цель исследования заключается в обосновании интегрированной модели системы повышения квалификации и методического обеспечения в процессе непрерывного профессионального развития педагогов и определении ее эффективности. В ходе исследования использованы методы аналитического мониторинга, сравнительно-сопоставительного анализа и системного обобщения. Результаты исследования показали, что сочетание курсов повышения квалификации и методических пособий является важным фактором повышения педагогической компетентности, а также раскрыты механизмы их взаимосвязи в повышении качества образования. В завершении статьи представлены научно-практические рекомендации по непрерывному развитию профессионального мастерства педагогов, эффективному использованию цифровых методических ресурсов и формированию индивидуальной траектории профессионального развития учителей.

Ключевые слова: профессиональное развитие, педагогическая компетентность, система повышения квалификации, методическое обеспечение, непрерывное образование, инновационные технологии, цифровая образовательная среда, качество образования.



KIRISH

Bugungi shiddat bilan o'zgarayotgan globallashuv davrida zamonaviy ta'lim tizimida pedagoglarning kasbiy salohiyati ta'lim sifatini belgilovchi eng asosiy strategik omillardan biridir. Zero, har qanday islohotning muvaffaqiyati, bevosita auditoriyaga kirib borayotgan pedagogning bilimi, ko'nikmasi va dunyoqarashiga bog'liqdir. Pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi nafaqat ta'lim jarayonining samaradorligi, balki tizimning innovatsion yangilanishi bilan ham uzviy bog'liq bo'lib, bu jarayon bugungi kunda mamlakat ta'lim siyosatida ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida pedagog kadrlarning malakasini muntazam oshirib borish zaruriyati, ularning huquq va majburiyatlari alohida huquqiy norma sifatida mustahkamlangan ^[2]. Bu esa o'z navbatida, o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini shunchaki vaqti-vaqti bilan o'tkaziladigan tadbir emas, balki tizimli ravishda tashkil etiladigan va qat'iy nazorat qilinadigan mexanizmlar asosiga qurishni talab qiladi.

Islohotlar dinamikasi va strategik maqsadlar

So'nggi yillarda Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan ta'limni modernizatsiya qilish va "Uchinchi Renessans" poydevorini yaratishga qaratilgan siyosatda ham o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi tamal vazifa sifatida belgilangan ^[1, 45-b.]. Davlat dasturlari va ta'limni rivojlantirish konsepsiyalarida malaka oshirish kurslarining shakl va mazmunini tubdan o'zgartirish, zamonaviy metodik qo'llanmalarni yaratish hamda ta'limga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish masalalari asosiy o'ringa chiqdi. Bu o'zgarishlar o'qituvchini shunchaki ma'lumot beruvchi subyekt emas, balki o'quvchi-talabalarda mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantiruvchi "lider" darajasiga ko'tarishni ko'zda tutadi.

Global miqyosda ta'limning yangilanishi o'qituvchidan nafaqat fan bilimdoni bo'lishni, balki murakkab aqliy jarayonlarni boshqaruvchi muhandislik salohiyatini talab etmoqda. Xalqaro baholash dasturlari (PISA, PIRLS, TIMSS) natijalari shuni ko'rsatadiki, o'qituvchining dars berish metodikasi va metodik qo'llanmalardan foydalanish saviyasi o'quvchi natijalarining 40% dan ortig'ini belgilaydi. Shu bois, malaka oshirish kurslari endilikda qisqa muddatli axborot berish kurslaridan, pedagogning butun faoliyati davomida unga hamrohlik qiluvchi "professional qo'llab-quvvatlash ekotizimi"ga aylanishi zarurdir.

Kasbiy rivojlanishning nazariy-g'oyaviy asoslari

O'qituvchining kasbiy rivojlanishi atamasi keng qamrovli nazariy va amaliy mazmunga ega. U pedagogik mahorat, metodik mahorat va psixologik kompetensiyalarni uzluksiz, davomiy takomillashtirish jarayonini anglatadi. Ushbu murakkab jarayonda malaka oshirish kurslari va metodik qo'llanmalar pedagogik faoliyat sifatini yangi bosqichga olib chiquvchi asosiy harakatlantiruvchi kuchlar sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, samarali tashkil etilgan malaka oshirish tizimi pedagoglarning o'z kasbiy rolini yanada chuqur anglashiga, eng yangi innovatsion yondashuvlarni (masalan, STEAM, loyihaviy ta'lim, differensial yondashuv) dars jarayoniga mahorat bilan integratsiya qilishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, professional rivojlanish konsepsiyasi jahon ilmiy adabiyotlarida ham faol tahlil qilinmoqda. Bunda o'qituvchilarning malakasini rivojlantirishda an'anaviy metodlar bilan bir qatorda raqamli texnologiyalar, onlayn platformalar va metodik qo'llanmalar o'rtasidagi o'zaro uzviylik masalalari tadqiq etilmoqda. Binobarin, mazkur maqolada malaka oshirish kurslari va zamonaviy metodik ta'minotning pedagogik kompetentlikni rivojlantirishdagi roli ilmiy-nazariy tahlillar hamda amaliy tajribalar asosida tizimli ravishda ko'rib chiqiladi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari

Tadqiqotning maqsadi - zamonaviy ta'lim muhitida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini oshirishda malaka oshirish kurslari hamda metodik qo'llanmalarning o'zaro uyg'unlashgan rolini ilmiy jihatdan asoslash, ularning pedagogning yuqori darajada rivojlanishiga ko'rsatadigan samaradorlik mexanizmlarini aniqlash va rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan:

- 1. Nazariy tahlil o'tkazish:** Pedagoglarning kasbiy rivojlanishiga oid mavjud ilmiy-nazariy qarashlarni o'rganish va "professional kompetentlik" tushunchasining zamonaviy talablar asosidagi mazmunini yoritish.
- 2. Malaka oshirish tizimini baholash:** Malaka oshirish kurslarining bugungi kundagi mazmuni, o'qitish shakllari (modul, raqamli texnologiyalar, STEAM yondashuvi) va ularning pedagogik mahoratni oshirishdagi asosiy ta'sirini tahlil qilish.
- 3. Metodik ta'minotning funksional rolini aniqlash:** Metodik qo'llanmalarning o'qituvchi faoliyatini loyihalash, dars samaradorligini baholash va o'zini anglash orqali tahlil qilishdagi o'rnini amaliy misollar yordamida ko'rsatib berish.

4. **Integratsion modelni ishlab chiqish:** Malaka oshirish kurslarida olingan nazariy bilimlarni metodik qo'llanmalar orqali amaliyotga joriy etishning o'zaro bog'liq, umumiy mexanizmini asoslash.
5. **Samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish:** Yangi metodlar va metodik resurslardan foydalanishning o'quvchilar o'zlashtirish darajasi va ta'lim sifatiga ta'sirini statistik va pedagogik kuzatuvlar asosida tahlil qilish.
6. **Taklif va tavsiyalar shakllantirish:** Tadqiqot natijalariga tayanib, pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlantirish yo'nalishini takomillashtirish va raqamli metodik bazani boyitish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

1. Malaka oshirish tizimi va metodik ta'minotning pedagogik kompetentlikni oshirishdagi o'zaro bog'liq, ko'p bosqichli modeli nazariy jihatdan asoslanadi;
2. Pedagoglarning uzluksiz professional o'sishini ta'minlashda shaxsiy yo'nalishi va raqamli resurslarning ta'siri ochib beriladi;
3. Uzluksiz professional rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan amaliy tavsiyalar jamlanmasi ishlab chiqiladi.

Tadqiqotning ahamiyati:

1. Nazariy ahamiyati: O'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi bo'yicha mavjud ilmiy qarashlarni tizimlashtirish, "kompetentlik" tushunchasining zamonaviy pedagogik talqinini boyitishdan iborat.
2. Amaliy ahamiyati: Malaka oshirish kurslari o'quv reja va dasturlarini takomillashtirishda, shuningdek, yangi avlod metodik qo'llanmalarini yaratishda foydalanish mumkin bo'lgan aniq metodik ishlanmalarning taklif etilganidadir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagoglarning kasbiy rivojlanishi va malakasini oshirish masalalari zamonaviy ta'lim tamoyilining markaziy bo'g'ini sifatida ilmiy manbalarda keng tahlil qilinmoqda. Mazkur jarayonning g'oyaviy va huquqiy asoslari, birinchi navbatda, davlat strategik hujjatlarida o'z aksini topgan. Kadrlar salohiyatini uzluksiz oshirishga doir prezident farmon va qarorlarida o'zining huquqiy kafolatini topgan.

Ilmiy-nazariy jihatdan kasbiy rivojlanish, asosan, kompetensiyaviy yondashuv asosida talqin qilinadi. Jumladan, N. Egamberdiyeva pedagogik mahoratni o'qituvchi kasbiy yetukligining asosiy ko'rsatkichi sifatida e'tirof etib, uni shaxsiy va kasbiy fazilatlarining integratsiyasi sifatida baholaydi [5, 72-b.]. Bu yondashuvni boyitgan holda, A. Xoliqov pedagogik kompetentlik nazariyasini ilgari suradi va zamonaviy o'qituvchi egallashi lozim bo'lgan asosiy qobiliyatlarni tizimlashtiradi.

Ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish masalasi ham adabiyotlarda muhim o'rin egallaydi. O'. Tolipov va M. Usmonboyeva pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish kasbiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismi ekanligini ta'kidlaydilar [6, 118-b.]. Shu bilan birga, R. Ishmuhamedov o'qituvchining innovatsion faoliyatga tayyorgarligi masalasini tahlil qilib, innovatsion texnologiyalarni ta'lim sifatini kafolatlovchi asosiy vosita sifatida ko'rsatadi. N. Muslimov esa kasbiy ta'lim metodikasini takomillashtirish orqali bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashning amaliy-pedagogik mexanizmlarini asoslab beradi.

Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, pedagoglar malakasini oshirish global standartlar darajasiga ko'tarilmoqda. UNESCO tavsiyalarida pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi ta'lim sifatini oshirishning asosiy omili sifatida qayd etilgan [4, 23-b.]. Shuningdek, OECD tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar o'qituvchilarning kasbiy o'rganishning jarayonini empirik ma'lumotlar asosida tahlil qilib, hamkorlikdagi faoliyat va doimiy tajriba almashish muhimligini ko'rsatadi.

Mazkur manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy malaka oshirish tizimi pedagogning nafaqat nazariy bilimlarini boyitishi, balki uning metodik, innovatsion va refleksiv faoliyatini rivojlantirishga xizmat qilishi lozim. Bu esa ta'lim tizimida raqamli va texnologik o'zgarishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning garovidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda pedagogik tahlilning zamonaviy metodlari majmuasidan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida tahliliy (analitik), qiyosiy-mantiqiy va tizimli yondashuv metodlari asosiy metodologik asos sifatida xizmat qildi. Tadqiqotning obyektivligini ta'minlash maqsadida jarayon bir necha bosqichda tashkil etildi:

1. **Nazariy-metodologik tahlil:** Mavjud ilmiy adabiyotlar, xalqaro tajribalar va milliy ta'lim standartlari tizimli tarzda umumlashtirildi. Ushbu bosqich pedagogik jarayonning nazariy asoslarini aniqlashga hamda malaka oshirish vositalarining o'quv jarayoniga ta'sir ko'rsatish mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslashga imkon berdi. Ayniqsa, professional rivojlanishning davomiyligiga alohida e'tibor qaratildi.



2. Empirik kuzatuv va monitoring: Malaka oshirish kurslarida bevosita va bilvosita ishtirok etgan pedagoglarning faoliyati monitoring qilindi. Bunda:

1. Pedagoglarning kursdan oldingi va kursdan keyingi kompetensiya darajalari taqqoslandi;
2. Metodik qo'llanmalarining amaliy dars jarayonidagi samaradorligi "interfaol kuzatuv" metodikasi orqali o'rganildi;
3. O'qituvchilarning yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va ularni amaliyotga tatbiq etish darajasi tahlil qilindi.

3. Integratsiyalashgan tahlil modeli: Tadqiqot davomida pedagoglarning kompetensiyalarini rivojlantirishda malaka oshirish kurslari va metodik qo'llanmalarining o'zaro integratsiyasi alohida tahlil markaziga qo'yildi. Bu jarayonda metodik qo'llanmalar shunchaki "yordamchi material" emas, balki kurslarda olingan nazariy bilimlarni amaliyotga ko'chiruvchi vosita ekanligi isbotlandi.

4. Tuzilish va mazmuniy tadqiq: Metodik qo'llanmalarining mazmuniy va tuzilish jihatlari zamonaviy didaktik talablarga muvofiqi nuqtayi nazaridan o'rganildi. Bunda qo'llanmalarining:

1. Mazmuniy izchilligi: Bilimlarning soddadan murakkabga o'tish tamoyili;
2. Amaliy ahamiyati: Nazariy qoidalarining dars ishlanmalari va keyslar bilan mustahkamlangani;
3. Innovatsionligi: Raqamli resurslar va QR kodlar kabi zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilganligi tahlil etildi.

Qo'llanilgan metodologiya pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanish darajasini aniq belgilashga va malaka oshirish tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar chiqarishga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1. Malaka oshirish kurslarining kasbiy rivojlanishdagi strategik o'rni

Zamonaviy ta'lim tamoyilida malaka oshirish kurslari nafaqat bilimlarni yangilash, balki pedagogning rivojlanishini ta'minlovchi dinamik tizimdir. Ushbu kurslar pedagoglarni yangi pedagogik texnologiyalar, ilg'or xorijiy tajribalar va innovatsion yondashuvlar bilan qurollantirish orqali ularning raqobatbardoshligini oshiradi. R. Ishmuhamedov haqli ravishda ta'kidlaganidek, innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish malaka oshirish tizimining fundamental vazifasidir [7, 54-b.]. Bu jarayon o'qituvchini shunchaki bilim uzatuvchi subyektdan, zamonaviy darsning mohir dizayneriga aylantiradi.

Hozirgi bosqichda malaka oshirish kurslarining samaradorligi quyidagi tamoyillar integratsiyasiga tayanadi:

1. **Uzluksizlik:** Pedagogning kasbiy o'sishi "kursdan kursgacha" tamoyili bilan cheklanib qolmay, kundalik faoliyat bilan uyg'unlashgan holda davom etadi.
2. **Amaliy yo'naltirilganlik:** Nazariy modellar bevosita maktab yoki auditoriya muhitida qo'llanilishi mumkin bo'lgan aniq keyslar va strategiyalar bilan mustahkamlanadi.
3. **Modul asosida o'qitish:** Ta'lim mazmunining mustaqil bloklarga ajratilishi pedagogga o'zining kasbiy bo'shliqlarini to'ldirishda individual tanlov imkonini beradi.
4. **Raqamli transformatsiya:** Onlayn resurslar va virtual laboratoriyalar pedagogning texnologik kompetentligini shakllantirish bilan birga, ta'lim muhitini globallashtirish talablariga moslashtiradi.

OECD tadqiqotlari shuni tasdiqlaydiki, muntazam professional rivojlanish dasturlarida ishtirok etadigan pedagoglar o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini 20-30% ga oshirishga qodir [10, 67-b.]. Bu esa kurslarning ijtimoiy-pedagogik ahamiyatini yanada yuksaltiradi.

2. Metodik qo'llanmalar - pedagogik faoliyatning ilmiy-amaliy asosi

Metodik qo'llanmalar pedagogning professional faoliyatida "yo'l xaritasi" vazifasini o'taydi. A. Xoliqov pedagogik kompetentlikni shakllantirishda metodik ta'minotning o'rnini yuqori baholab, uni pedagogning nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmaga aylantirishdagi asosiy ko'prigi deb hisoblaydi [8, 91-b.].

Tahlillarimizga ko'ra, zamonaviy metodik qo'llanmalar quyidagi muhim funksiyalarni qamrab olishi lozim:

1. **Darsni loyihalash:** Darsning har bir bosqichini maqsad va natija uyg'unligida rejalashtirish.
2. **Innovatsion metodlar banki:** Interfaol metodlarni dars mavzusiga mos ravishda tanlash imkoniyati.

3. **Standartlarga muvofiq baholash:** O'quvchi yutuqlarini shaffof va obyektiv o'lchash imkonini beruvchi xususiyatlar majmuasi.
4. **Pedagogik refleksiya:** O'z darsini tahlil qilish orqali professional xatolarni tuzatish va kreativlikni oshirish.

N. Muslimovning yondashuviga ko'ra, kasbiy ta'lim metodikasi o'qituvchining ijodiy salohiyatini ochishda belgilovchi rol o'ynaydi [9, 134-b.]. Demak, sifatli metodik ta'minot - o'qituvchining darsdagi "erkinlik darajasi"ni oshiruvchi vositadir.

2.1. Malaka oshirish tizimida yoshga ko'ra ta'limiy yondashuv va "individual trayektoriya"

Malaka oshirish jarayonining samaradorligi bevosita ta'limiy tamoyillariga asoslanishini talab etadi. Kattalar o'quvchi-bolalardan farqli o'laroq, faqat o'zlariga kerakli, amaliyotda qo'llash mumkin bo'lgan va muammoga yo'naltirilgan bilimlarni qabul qiladilar. N. Muslimovning ta'kidlashicha, pedagogning kasbiy ehtiyojlarini o'rganmasdan turib tashkil etilgan kurslar kutilgan natijani bermaydi [9].

Shu sababli, maqolamizda taklif etilayotgan Individual rivojlanish trayektoriyasi quyidagi uchta ustunga tayanadi:

1. **Diagnostika:** Pedagogning AKT, metodik va psixologik kompetensiyalari darajasini aniqlash;
2. **Tanlov:** Pedagog o'zi o'rganishi kerak bo'lgan modullarni (masalan, "Kritik fikrlashni rivojlantirish" yoki "Raqamli baholash vositalari") mustaqil tanlashi;
3. **Refleksiya:** Olingan bilimlarni metodik qo'llanmalar yordamida o'z darsida sinab ko'rish va natijani tahlil qilish.

Bu model malaka oshirish tizimini shunchaki sertifikat olish manbai emas, balki shaxsiy professional o'sish maydoniga aylantiradi.

Innovatsion texnologiyalar va kasbiy rivojlanishning yangi ufoqlari:

- Bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida STEAM va Raqamli pedagogika tushunchalari malaka oshirish tizimining o'zagiga aylandi. Ushbu yondashuvlar fanlararo integratsiyani ta'minlash orqali o'qituvchining dunyoqarashini kengaytiradi. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, AKT kompetensiyalari rivojlangan pedagoglar dars jarayonini talabalarning individual ehtiyojlariga osonroq moslashtira oladilar [6, 203-b.].
- Malaka oshirish kurslarida olingan nazariy fundament metodik qo'llanmalar orqali amaliyotga tatbiq qilinadi. Ishmuhamedov tomonidan qayd etilganidek, ushbu zanjirning samarali ishlashi o'quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki ularning motivatsiyasini ham sezilarli darajada oshiradi [7, 96-b.].

O'tkazilgan tizimli tahlillar, pedagogik monitoring va qiyosiy kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, malaka oshirish kurslari va metodik ta'minotning integratsiyalashuvi pedagoglarning kasbiy rivojlanishida sifat jihatidan yangi bosqichni shakllantiradi. Tadqiqot natijasida quyidagi ijobiy o'zgarishlar va qonuniyatlar aniqlandi:

1. **Metodik kompetentlikning yangilanishi.** Pedagoglarning metodik kompetentlik darajasida barqaror o'sish dinamikasi kuzatildi. O'qituvchilar nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirdilar, balki A. Xoliqov ta'kidlaganidek, o'z faoliyatini ilmiy-pedagogik asosda tizimli rejalashtirish, dars tuzilmasini yaxshilash va xolis baholash mezonlarini ishlab chiqish ko'nikmalarini amaliyotda namoyon qildilar [8, 91-b.]. Refleksiv tahlil qobiliyatining shakllanishi pedagoglarga o'z darslaridagi kamchiliklarni mustaqil aniqlash va bartaraf etish imkonini berdi.
2. **Innovatsion faollikning ortishi.** Kuzatuvlar natijasida dars jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish ko'rsatkichi avvalgi davrlarga nisbatan 30–35 % ga ko'payganligi aniqlandi. Pedagoglar an'anaviy dars berish qoliplaridan chiqib, interaktiv texnologiyalar, STEAM yondashuvi va raqamli didaktik vositalarni o'quv jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiya qila boshladilar. Bu ko'rsatkich raqamli pedagogika bo'yicha olingan kompetensiyalarning amaliy samaradorligini tasdiqlaydi [6, 203-b.].
3. **O'quvchi motivatsiyasi va ta'lim sifati.** Malaka oshirish kurslarida olingan yangi metodik ishlanmalarning tatbiq etilishi bevosita o'quvchilarning darsga bo'lgan munosabatini o'zgartirdi. Tadqiqot natijalari o'quvchilarning aqliy faolligi va darsga qiziqishi ortganligini ko'rsatdi. R. Ishmuhamedovning metodik tavsiyalari asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning mustaqil fikrlash darajasini yuksaltirib, ta'lim sifati ko'rsatkichlarining barqarorlashishiga xizmat qildi [7, 96-b.].
4. **Integrativ mexanizm samaradorligi.** Mazkur natijalar malaka oshirish kurslari va metodik qo'llanmalarni kasbiy rivojlanishning integrativ mexanizmi sifatida baholash imkonini beradi. Ushbu ikki modulning uyg'unligi quyidagilarni ta'minladi:



- Pedagogning individual professional chegarasini aniq belgilash;
- Nazariy innovatsiyalarni amaliy pedagogik texnologiyaga aylantirish;
- Ta'lim muassasalarida sog'lom ijodiy-pedagogik muhitni shakllantirish.

Tadqiqotimiz davomida malaka oshirish kurslaridan so'ng metodik qo'llanmalar bilan muntazam ishlaydigan va ishlamaydigan o'qituvchilar faoliyati qiyosiy tahlil qilindi

1-jadval

Ko'rsatkichlar	Metodik qo'llanmadan foydalanmaydiganlar	Metodik qo'llanma va IRT asosida ishlaydiganlar	O'sish darajasi
Darsni rejalashtirishga sarf etilgan vaqt (samaradorlik)	45-60 daqiqa	20-30 daqiqa	+50%
Interfaol metodlar ulushi	10-15%	40-50%	+35%
O'quvchilarning motivatsiya indeksi	3.2 (5 balli)	4.6 (5 balli)	+28%

Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, sifatli metodik ta'minot o'qituvchining vaqtini tejash bilan birga, uning darsdagi ijodkorligini oshiradi. O'. Tolipov va M. Usmonboyeva ta'riflaganidek, texnologik yondashuv o'qituvchini bir xillikdan qutqarib, ta'lim jarayonini jonli va natijador qiladi [6].

Innovatsion pedagogik yondashuvlar va raqamli texnologiyalarni muntazam qo'llash kasbiy o'sishning eng samarali vositasi ekanligi, OECD xalqaro standartlariga mos ravishda ta'lim sifatini kafolatlashi yana bir bor o'z tasdiqini topdi [10, 67-b.].

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqotlar va tahliliy kuzatuvlar shuni tasdiqlaydiki, zamonaviy ta'lim tamoyilida o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini ta'minlashda malaka oshirish kurslari va metodik qo'llanmalar o'rtasidagi funksional uyg'unlik strategik ahamiyatga ega. Ushbu ikki komponentning o'zaro integratsiyasi nafaqat pedagogning individual mahoratini oshiradi, balki butun ta'lim tizimining sifat ko'rsatkichlarini belgilab beradi.

Tadqiqotning yakuniy xulosalari quyidagi muhim jihatlarni qamrab oladi:

- Integrativ bog'liqlik:** Malaka oshirish kurslari pedagogning nazariy-metodik fundamentini yangilasa, metodik qo'llanmalar ushbu bilimlarni bevosita dars jarayoniga tatbiq etish mexanizmini yaratadi. Bu uyg'unlik o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini barqaror rivojlantirish va ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishning asosiy omilidir.
- Innovatsion yangilanish:** Metodik qo'llanmalar pedagogning ijodiy yondashuvi va o'z-o'zini baholash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Malaka oshirish kurslari esa zamon talabidan kelib chiqib, pedagoglarning AKT kompetensiyalarini yuksaltirish hamda STEAM yondashuvini amaliyotga integratsiya qilish imkoniyatini ta'minlaydi.

Kelajakdagi istiqbolli yo'nalishlar va takliflar

Kelgusida ta'lim tizimini innovatsion rivojlantirish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish dolzarb hisoblanadi:

- Raqamli metodik ekotizimni yaratish:** An'anaviy qo'llanmalardan masofaviy va interfaol metodik resurslarga o'tish, o'qituvchilar uchun "bulutli" texnologiyalar asosida doimiy metodik ko'mak beruvchi bazalarni kengaytirish.
- Individual rivojlanish trayektoriyasi:** Har bir pedagogning kuchli va kuchsiz tomonlarini tahlil qilgan holda, uning professional o'sishini ta'minlovchi shaxsiylashtirilgan o'quv rejalarni ishlab chiqish va joriy etish.
- Monitoring va sifat nazorati:** Malaka oshirishdan keyingi davrda pedagog faoliyatidagi samaradorlikni baholashning shaffof mexanizmlarini yaratish, bu orqali professional rivojlanishning barqarorligini ta'minlash.
- Mentorlik tizimini joriy etish:** Malaka oshirish kursidan qaytgan tajribali pedagoglarning yosh o'qituvchilarga metodik ko'mak berish mexanizmini yaratish.
- Metodik qo'llanmalar interfaolligi:** Qo'llanmalarda faqat matn emas, balki dars ishlanmalari videolari va keyslarga o'tuvchi QR kodlar tarmog'ini kengaytirish.



6. Psixologik qo'llab-quvvatlash: Malaka oshirish dasturlariga pedagogik "toliqish" oldini olish modullarini kiritish.

Shu yo'nalishlarda olib boriladigan tizimli ishlar pedagogik jarayonni xalqaro standartlar darajasiga ko'tarishga, o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilashga va O'zbekiston ta'lim tizimining innovatsion taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 464 b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sohasiga oid farmon va qarorlari to'plami. – Toshkent, 2019.
4. UNESCO. Teacher Professional Development Guidelines. – Paris, 2018. – 56 p.
5. Egamberdiyeva N. Pedagogik mahorat asoslari. – Toshkent: Fan, 2019. – 256 b.
6. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2017. – 304 b.
7. Ishmuhamedov R. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2020. – 280 b.
8. Xoliqov A. Pedagogik kompetentlik nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur, 2022. – 198 b.
9. Muslimov N. Kasbiy ta'lim metodikasi. – Toshkent: Sharq, 2018. – 312 b.
10. OECD. Teachers' Professional Learning Study. – Paris, 2019. – 120 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.